

Bahodir OMONOV,

Shahrisabz davlat pedagogika instituti dotsenti, f.f.d (DSc), Ijtimoiy fanlar kafedrasi mudiri

E-mail:bakhodiron@gmail.com

F.f.d (DSc) O'.Tilovov taqrizi asosida

“DASTUR UL-MULUK” VA “SADDI ISKANDARIY” ASARLARIDA GEOSIYOSIY QARASHLAR

Annotatsiya

Maqlola, Termiziy Xoja Samandar Muhammad ibn Baqoning “Dastur ul-muluk” asaridagi geosiyosiy g‘oyalar, muallifning hayot yo‘li, Buxoro Amirligida yuz bergan siyosiy qarama-qarshiliklar haqida fikr yuritilgan. Shuningdek, Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarida ilgari surilgan geosiyosiy munosabatlar, muallifning qudratli davlatni buniyod etish orzusidagi qarashlari yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Qumqo‘rg‘on tumani, Qopto‘qay qishlog‘i, axloqiy-siyosiy xususiyat, harbiy qo‘sishinlar, Balx qal’asi, savdo yo‘laklari, podsho va boshqaruv, Iskandar devori, adolatpesha, ilohiy timsol, adolatl jamiyat.

ГЕОПОЛИТИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ «ДАСТУР УЛ-МУЛЮК» И «САДДИ ИСКАНДАРИ»

В статье рассматриваются геополитические идеи в произведении Термизи Ходжи Самандара Мухаммада ибн Бака «Дастур ул-мулюк», жизненный путь автора, а также политические конфликты, происходившие в Бухарском эмирате. Также освещены геополитические отношения, развитые в произведении Алишера Навои «Садди Искандари», и взгляды автора на его мечту о создании мощного государства.

Ключевые слова: Кумкурганский район, село Каптокай, морально-политический облик, военные силы, крепость Балх, торговые коридоры, царь и администрация, Александровская стена, справедливость, божественный символ, справедливое общество.

GEOPOLITICAL VIEWS IN THE WORKS “DASTUR UL-MULYUK” AND “SADDI ISKANDARI”

The article examines the geopolitical ideas in the work of Termizi Khoja Samandar Muhammad ibn Bak “Dastur ul-mulyuk”, the life path of the author, as well as the political conflicts that took place in the Bukhara Emirate. Also covered are the geopolitical relations developed in Alisher Navoi’s work “Saddi Iskandari”, and the author’s views on his dream of creating a powerful state.

Key words: Kumkurgan region, Kaptokai village, moral and political image, military forces, Balkh fortress, trade corridors, king and administration, Alexander Wall, justice, divine symbol, fair society.

Kirish. O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan boshlab ta’lim tizimini xalqaro standartlarga moslashtirishni tezlashtirish, buyuk ajdodlarimiz ilmiy merosini qayta o‘rganib, yoshlarga, kelajak avlodga yetkazishni davlat siyosatining ustuvor vazifasi sifatida qaramoqda. Ayniqsa, geosiyosiy bilimlarni, uning rivojlanish bosqichlarini ilmiy va amaliy jihatdan qiyosiy o‘rganish dolzarb ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra, o‘zbek xalqining mashhur allomalari Termiziy Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo va Alisher Navoiyning geosiyosiy qarashlarini ilmiy asoslab xalqimizga havola qilish maqolamizing asosini tashkil etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. “Dastur ul-muluk” va “Saddi Iskandariy” asarlari mamlakatimiz va xorijiy faylasuflar, siyosatshunoslar, adabiyotshunoslar va boshqa soha olimlari tomonidan o‘rganilan. Masalan, ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan, J.Tulenov, S.Shermuhammedov, S.Mamashakirov, Q.Nazarov, A.Choriyev, S.Choriyev, A.Erkayev, J.Yaxshilikov, O.G‘aybullayev, A.Aymatov, O’.Tilavov, S.Otamurodov, N.Qosimov, G.Ochilova, A.Muxtorov, B.Aliyev siyosiy va geosiyosiy tomonlari X.Odilqoriyev, D.Razzoqov, I.Ergashev, H.Azimov, M.Qirg‘izboev, B.Omonov, T.Jo‘rayev adabiy asoslari D.To‘rayev, A.Muxammadiyev, Sh.Sirojiddinov, D.Yusupova va boshqa olimlarning ilmiy ishlarda tahlil qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mavzuning mohiyatini yoritishda tarixiylik, analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi mantiqiy uslublardan foydalilanigan. Ikkala asarda aks ettilirgan g‘oyalar, qarashlar, ta’limotlar qiyosiy tahlil qilingan, siyosiy fikrlar umumlashtirilib geosiyosiy xulosalar berilgan.

Tahlil va natijalar. “Dastur ul-muluk” asari. Termiziy Xoja Samandar Muhammad ibn Baqo (taxallusi: Samandar) taxminan 1638 yili Termiz shahrida tug‘ilgan, taxminan 1740 yil Qumqo‘rg‘on tumanidagi Qopto‘qay qishlog‘ida vafot etgan. Tarixchi olim, shoир, ulamo va davlat arbobi. Termiz sayyidlari oilasida ulg‘aygan. Buxoroda madrasa tahsilini olgan. Dastlab Narpayda qozilik qilgan (1660 – 1662). So‘ngra Sharq va G‘arb mamlakatlari, jumladan, Hindistonda darvesh sifatida yashagan. 1670 yillarda Buxoroga qaytib, ashtarxoniyalar hukmdori Abdulazizxon saroyida tarixchi (voqenavis) lavozimida ishlagan. Subhonqulixon hukmronligi davrida saroya uning nufuzi oshgan. Xiva xoni Anushaxon qo‘sishinlari Buxoroga bostirib kelganida janglarda bevosita qatnashib, jasorat ko‘rsatgan (1678 – 1680). Elchi sifatida qo‘sishni mamlakatlarga borgan. Nasafda rais (muhtasib) diniy lavozimida ishlagan. Termiziy fors-tojik tilida Qarshida “Dastur al-muluk” (“Podshohlarga qo‘llanma”; 1695 – 1696) asarini yozgan. “Dastur ul-muluk” asari Buxoro xoni Subhonqulixonga bag‘ishlangan bo‘lib, u muqaddima va 22 bobdan iborat. Kitob axloqiy-siyosiy xususiyatga ega tarixiy, adabiy asar bo‘lib, unda davlatni boshqarish to‘g‘risida podshohlarga qimmatli maslahatlar mavjud. Asarda muallif yashagan davrda yuz bergan tarixiy voqealar: Buxoro xonlari qo‘sishinlarining Xiva xonlari Anushaxon va Arangxon bosqinlariga qarshi olib borgan janglari, Movarounnahr va Xurosonda markaziy hokimiyatga qarshi ko‘tarilgan isyonlar va boshqalar bayon etilgan [1].

“Dastur ul-muluk” pand-nasihat yo‘simidagi asardir, Xoja Samandar o‘z ta’lim-tarbiyaviy karashlarini yashagan davri xususiyatlariiga moslab ilgari suradi. Ayni choqda davr va zamon hodisalari an‘anaviy hikoyatlar va hikmatli she‘riy parchalar vositasida tahlil etadi hamda xulosalaydi. Asarda davlat boshqaruvini adolatli amalga oshirish bosh g‘oya sifatida ko‘tariladi. Davlatda ham, raiyatda ham odob-axloq, tartib ustuvor bo‘lishi zarurligi keltirilgan. O‘zaro urushlarning davom etishi xoinlik, nafsning buzuqligi, lafsizlik, e’tiqodsizliklar oqibatida deb izohlanadi. Mayda xonliklar o‘rtasidagi o‘zaro urushlarda asosiy maqsad yo‘lagi aks etadi. Masalan, xorazmliklarning (Anushaxon) Buxoro ustiga yurishida shahar va qishloqlar talanganligi, ba’zi shahar amaldorlarining sotqinligi aytildi. Abdulazizxon davrida mamlakatda notinchlik hukm suradi. Abdulazizxon va Subhonqulixon o‘rtasidagi kurash kuchayadi. Ular o‘rtasidagi muammolar amaldorlar tomonidan murosaga keltirilsa-da, Subhonqulixon Balxni mustaqil boshqaradi. Bu kurashlar oqibatida davlat ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, harbiy sohada ancha zaiflashadi. Xiva bilan uzoq urushlar ustiga mamlakatdagi turli ijtimoiy qatlamlar o‘rtasidagi ixtiloflarning keskinlashib borishi

davlat hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatgani tasvirlanadi. Abdulazizxon hokimiyatni ukasi Subhonqulixonga topshirgandan keyingi davrlardagi davlatga ishonchszlik kayfiyatida bo'lgan amaldorlar faoliyati ham hikoya qilinadi. Asarning XXI bobida aks etgan "Subhonqulixon hukumati o'rnatilganidan so'ng bo'lib o'tgan voqealar" nomli birinchi fasl[2; 77 – 88]da Buxoro shahrining himoyasi va Abdulazizxonning o'limi haqidagi hikoyalar beriladi. Ushbu bobning ikkinchi fasli[2; 88 – 95]da Subhonquli Muhammad Bahodirxon Samarqand boshqaruvini Xo'jaqulibiy otarchiga topshirgani, u esa xiyonat qilib qo'zg'olon ko'targani va Xitoy, xorazmliklar bilan til biriktirgani yoziladi. Unda keltirilishicha, Subhonqulixon Xo'jaqulibiyini huzuriga chaqirish uchun vakil yuboradi. Lekin, Xo'jaquli odamlarini to'plab, qo'zg'olon yo'li bilan qarshilik musulmonlarining mulkiga bostirib kiradi. Uning dashmanligi shu darajaga yetib borganki, urganchlik (ya'ni Anushaxon) qabulida bo'lib, uni Xorazmdan chiqib harakat qilishiga ko'ndiradi. Anushaxon esa Buxoroni egallash niyatida Xo'jaquli so'zlariga quloq solib, qo'zg'olon yo'lini tanlaydi. Bu xabarni eshitgan xon dashmanga qarshi jangga kirishadi. Bu orada G'oyib Nazarbiy saroy, Jonibek to'qsabo, Sher G'ozibiy dodxoh harbiy qo'shinlar bilan birga otlarda jangga kirishadi. Ushbu dahshatli jang vaqtida xonning bahodirlari tomonidan yetkazilgan zarbalari natijasida Anushaxoning noibi bo'lmiss Murod Urganjiy yengiladi. Bu voqeadan keyin dashmanlar vodiya qarab chekinishadi. Bundan xabar topgan Anushaxon ertasi kuni tongda katta qo'shin bilan G'ijduvon tomondan chiqib keladi. Lekin jang Subhonqulixon g'alabasi bilan yakunlanadi.

Asarda Subhonqulixon va o'g'li Siddiq Muhammad (Balx xokimi) o'rtasidagi nizolar bayoni ham keltiriladi. Taxt uchun bo'lgan kurash natijasida ota-bola munosabatlari darz ketganligini afsus-nadomatlar bilan yozadi. Ota-bola munosabatlarining buzilishida saroy ayonlarining fitnasi, riyokor amaldorlarning qora qilmishlari ham chetda qolmagan. Xoja Samandar Termiziyl ota va farzand munosabatlari darz ketishini quyidagicha bayon qiladi. Xorazmliklar Buxoroni qurshab olishganida Subhonqulixonning o'g'li Siddiq Muhammad otasiga yordamga kelish umidini amalga oshirmaydi. O'zining bir qancha g'ulomlari so'zlariga quloq tutib, Amudaryoga qaytib Balx qal'asiga kirib keladi. U g'ulomlarining sotqinligi haqida bilmassi, xorazmliklarning harakatiga hatto e'tibor ham bermadi. Subhonqulixonni ranjitgan yana bir holat shu bo'lganki, Anushaxon Subhonqulixon tomonidan mag'lubiyatga uchrab, qaytganida Siddiq Muhammad g'iybatchilar gapiga quloq solib Hindistonga Hasanxo'jani yuboradi. Shuningdek, Siddiq Muhammad xon xizmatkorlariga nisbatan ham yomon munosabatda bo'ladi [2]. Muallif bu fikrlari bilan davlat hokimiyatining kuchsizlanganini markaziy apparat hudud boshqaruvini bir maromda nazorat ostida tutolmaganida deb biladi. Bu davrda Turkiston o'lkasi ancha kuchsiz davlatlar ixtiyorida edi. Ijtimoiy hayot ancha orqada qoldi. Asarda poraxo'r amaldorlar va qozilar haqida fikr yuritilgan. Qozilarning poraxo'rlik ayblari ochilgandan keyin ham yuqori lavozimlarga pora orqali erishganliklari muallif e'tiboridan chetda qolmagan.

"Dastur ul-muluk"da XVII asrning dolzarb muammolari haqida fikr yuritiladi. Asarning geosiyoysi nazariysi Turkiston hududining xalqaro maydonda obro'sizlanib qolgani, davlatga ishonchszlikni ortgani, jahon savdo yo'laklarida uzilishlarning mavjudligi, mayda feodal davlatlar o'rtasida kuchli markazlashgan davlatning yo'qligida namoyon bo'ladi. Ushbu asar siyosiy va geosiyoysi harakatlarni aks etirgan qo'llanma sifatida muhim manba hisoblanadi.

"Saddi Iskandariy" asari. Siyosiy ta'lilotlar tarixi va geosiyoysi bilimlar rivojida buyuk donishmand, davlat arbobi, she'riyat mulkinining sultonni Mir Alisher Navoiyning xizmati beqiyos. U 1441 yil 9 fevralda Xirot shahrida (1441 – 1501) temuriyzodalar xonardonida dunyoga kelgan. Alisher Navoiy siyosiy qarashlarining shakllanishi va rivojlanishini nisbiy ravishda ikki davrga bo'lib o'rghanish maqsadga muvofiq. Birinchi davr – uning yoshlik yillardan to 1476 yilda Husayn Boyqaro hokimiyatidagi vazirlik mansabidan iste'fo etib ketishigacha bo'lgan vaqtini o'z ichiga olsa, ikkinchi davr esa 1476 yildan boshlab, umrining so'ngi kunlarigacha bo'lgan vaqtini qamrab oladi [3]. Shoir geosiyoysi bilimlarga doir fikrlari va g'oyalarini "Saddi Iskandariy" dostonida asoslab bergan va unda ijtimoiyadolatlari tuzum g'oyasiniadolatlari shoh timsolidabeyon qilgan. Alisher Navoiy muammolarniadolatlari shoh –adolatlidiavlat,adolatlir qonunlar,adolatlir tartib sifatida poetik tasvirlagan [4]. Bu asardagi geosiyoysi fikrlar aynan Navoiy siyosiy qarashlarining ikkinchi davriga to'g'ri keladi. Navoiy turli xalqlar, ijtimoiy guruhi va tabaqalar o'rtasidagi oqilona, ma'rifatga asoslangan munosabatlar ijtimoiy barqarorlikka olib kelishini go'zal timsollar orqali ta'riflagan.

Asarda eng oddiy siyosiy masalalardan, ya'ni bo'lajakadolatlari shohni tanlash, tarbiyalash, bozorlarda toshu-taroziga davlat nazoratini o'rnatishdan eng murakkab masalalar – davlatlararo munosabatlar,adolatlidiavlat,adolatsiz urushlar,hokimiyatni boshqarishda shoh, omma va ma'rifatning roli kabi qator masalalargacha tahlil etilgan. Masalan, hukmdorni tanlashda mehrga boy, fikri tiniq,adolatda fasli navro'zdek, siyosatda jahonni kuydiruvchi chaqmoqdek, har qanday dashmanga chora topa oladigan, qattiqqa'l, elparvar bo'lismilik [5; 388 – 389] kerakligiga e'tibor qaratish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, halollikni ta'minlaydigan choralarini izlab topish, o'g'irlik, egriliklarni to'sish, yo'llarga maxsus qoravullari orqali yo'lovechilarini turli xavf-xatarlardan qutqarishning muhimligini bayon etadi. Navoiy podshohsiz raiyat va davlatsiz jamiyat bo'lishi mumkin emas, deb biladi. Jamiyat bo'lishi uchun davlat bo'lishi zarur, chunki manfaat kishilarni bir-biridan ajratadi va ayni paytda birlashtiradi. Bu – jamiyat qonuni. Shu qonunni nazorat qilish – odil podshoning vazifasi. Podsho va lashkar, podsho va boshqaruv tizimi xalqning osoyishta hayot kechirishiga kafil, deydi alloma. Navoiy odamlar bilim va amaliy faoliyat, zehnu-zakovatda bir emas, degan fikrga to'xtaydi. Birov aqlli, boshqasi o'ta aqlli, kimmingdir aqli kam, yana biri johil. Chunki, har bir kishida Ollohnning bir sifati aks etadi, sifatlar esa turlicha, "ikki sifat birday" emas. Shunday bo'lgach, axloq nuqtai nazaridan ham odamlarni teng bir holga keltirib bo'lmaydi. Demak, ularning mol-mulki teng bo'lishi amrimahol [3]. Mana shu tabiiy jarayonlar davlat boshqaruvida anchao'g'ir kechadi. Tartibga chaqirish va muhitni yaxshilash vazifasi faqat tajribali iqtidor egasi orqali amalga oshiriladi. Davlatda tartib o'rnatilgani bilan boshqa davlat hududlarida to'g'ri o'rnatilgan bo'lmasa, nazoratsizlik oqibatlari ushbu davlat aholisini ham izdan chiqaradi. Shu sababli, qudratli imperiya tashkil etish orzusini asarda bayon etadi. Navoiy o'z davrida temuriylar o'rtasidagi nizolar, tarqoq davlatchalar siyosiy faoliyatining bir-biriga ziddigi, o'zaro urushlardan xalqning jabr chekishi jarayonini boshidan kechirgan. Tarixiy ma'lumotlarga tayanib, kuchli davlatlari hukmronligi davrini o'z zamonasibilansolishtirgan. Jamiyatning gullab-yashnashini odil podsho birlashtirgan imperiya hukmronligida orzu qilgan. Uning nazlida aholi odil davlatga suyanadi, odil davlat esa, itoatkor, ma'rifati, hunarmand xalqqa tayanadi. Navoiy fikricha, barcha davlat boshliqlari hamadolatpesha bo'lmaydi. Xalq adolatlari hukmdorni topmaguncha jamiyatda nizolar, qo'zg'olonlar davom etaveradi. Agardavlatdaadolatvaqtida o'rnatilmasa bunday davlat qullikka mahkum bo'ladi. Aholi o'z davlatiga emas, boshqa odil hukmdordan madad kutadi. Masalan, asarning "Iskandar devorining qurilishi" bobida, Iskandarning kunchiqarga qarab qilgan yurishlari yajujlardan azob chekkан xalq – adolatsizliklardan qutqarishini, evaziga ulpon to'lashini iltimos qiladi. Iskandar ularni qutqarib, shahar atrofiga tosh devor qurdigani [5] haqida hikoya qilinadi.

"Saddi Iskandariy" asarida geosiyoysi fikrlar "Jahon davlati"ni tashkil etish g'oyasida aks etadi. Buni shahar aholisining Iskandarga murojaatida – "bu mamlakat ham senga kam, umidimiz borki, butun jahon sening qo'lingga tushgay, Osmon

avzoyidan ochiq va yashirin Jahon senikidir” [5] – degan fikrlarda ko‘rishimiz mumkin. Navoiy Iskandar siymosida jahoning dushmanlardan tozalanishini umid qiladi. Shunga ko‘ra, Iskandarni Marg‘ib, Farang, Qirim, Andalus, Misr, Iroq, Ajam, Yaman, Makka, Xorazm, Qipchoq, Rus, Gurji, Farkor, Movoraunnahr, Chigil, Yag‘mo, Chin, Hind, Kirmon, Mukron, Xuroson, Ray kabi davlatlarni birlashtirib yagona imperiyaga asos solishi davridaadolatlisiyosat yuritgani, qo‘shib olgan joylarini obod qilgani, Samarqand va Hirot shaharlarini bunyod [5; 394] etganini ilohiy timsolda izohlaydi. Imperiyaga ega bo‘lish shunchaki amalga oshmasligini, avvalo kuchli ilmga ega bo‘lishni va geografik muhitni yaxshi o‘rganish zarurligiga to’xtaladi. Shoh yer yuzidagi barcha ilmlardan habardor bo‘lishi bilan birga dengiz va samo ilmini o‘rganishi maqsadga muvofiqligini aks ettiradi. Asarning “Iskandarning ummon va dengizlardagi ilmiy kashfiyotlari” bobida: “Yer jismi yumaloq shaklda. Yaratuvchi uni kurra shakliga kiritgan. Lekin ul kurra suv ichida nihon bo‘lib, ochiq qismini jahon deb ataydilar. Unda shaharlar, tog‘lar, qir, sahro, dala, dashtlar joylashgan. Ammo uni suv ixota qilib turadi. Biroq yetti iqlim ochiq qolgan. Ammo ular ham ochiq emas, balki har tarafdan dengiz bilan o‘ralgan. Muhitni charxpalaksimon bo‘lib, uning atrofida yetti daryo, o‘n olita dengiz bor. Bulardan tashqari yuztacha daryo bo‘lib, har birining o‘zgacha ismi bor. Yetti daryo ko‘plab orollarni o‘z ichiga oladi”, deb ta’riflaydi. Bundan tashqari dengizlар, daryolar, kemalarning qatnovi, orollarning tutash joylari haqidagi sharhlar berilgan. Navoiy “Saddi Iskandariy” dostonida siyosatning geografiya bilan ayri holda bo‘lmasligini keltirgan. Siyosat doimo geografiya bilan birga taraqqiy etishini baholagan.

Xulosa va takliflar. Termiziyo Xoja Samandar Muhammad ibn Baqoning “Dastur ul-muluk” va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarlari falsafiy, siyosiy, ma’naviy, madaniy, geografik va boshqa fanlarga mansubligidan tashqari geosiyosiy ma’lumotlar va bilimlarni o‘zida mujjasamlashtirgan manba deb bilish o‘rnildir. Ikkala asarni ham qayta o‘rganib, undagi fikrlarni qiyosiy tahlil qilib, keng jamoatchilikka taqdim etish muhim ahamiyatga ega. Shunga ko‘ra: birinchidan, Termiziyo Xoja Samandar Muhammad ibn Baqoning “Dastur ul-muluk” va Alisher Navoiyning “Saddi Iskandariy” asarlaridagi geosiyosiy nazariyalarni alohida o‘rganishni tashkil etish; ikkinchidan, “Dastur ul-muluk” va “Saddi Iskandariy” asarlarini tarjima terajlarini ko‘paytirish; uchinchidan, “Dastur ul-muluk” va “Saddi Iskandariy” asarlaridagi geosiyosiy nazariyalarni talqin qiluvchi respublika va xalqaro konferensiyalarni joriy qilish; to‘rtinchidan, ushbu asarlarini umumiy mohiyatini barcha ta’lim muassasalarini darsliklariga kiritishni tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 8-jild. T.: 2004. –B.393-394. (704 b)
2. Хожа Самандар Термизий. Дастур ул-мулук. М.: “Наука”, 1971. –С.77 – 88.
3. Одилқориев Х., Рассоқов Д. Сиёсатшунослик. Т.: 2008. – Б.81. (344 б)
4. Эргашев И, Отамуродов С, Жўраев Т ва муаллифлар жамоаси. Политология. Т.: 2002. –Б.31. (283 б)
5. Alisher Navoiy. “Xamsa”. Saddi Iskandariy. Т.: “Yangi asr avlod”, 2019. – В.388 – 389. (495 б)